

O'ZBEKISTONDA YIRIK TIJORAT BANKLARINI XUSUSIYLASHTIRISH MASALALARI

Fayziyev Hosilbek Alijon o'g'li

Bank moliya akademiyasi magistranti

hf_bfa@mail.ru

Anantatsiya: O'zbekiston iqtisodiyotida bank tizimini isloh qilish va xususiylashtirish davlat strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yirik tijorat banklarini xususiylashtirish jarayoni mamlakatda raqobatbardosh bozorni shakllantirish, kapitalni jalb etish va banklarning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Biroq, bu jarayon uzoq muddatli iqtisodiy o'zgarishlar, qonuniy asoslarning yetishmasligi, ijtimoiy qatlamlarning noroziligi kabi qiyinchiliklar bilan bog'liq. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, xususiylashtirishning O'zbekiston sharoitidagi o'ziga xos xususiyatlarini va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganish orqali mamlakatning moliyaviy tizimini barqarorlashtirishga hissa qo'shish mumkin.

Abstract: Reform and privatization of the banking system in the economy of Uzbekistan is one of the main directions of the state strategy. The privatization process of large commercial banks creates opportunities for the formation of a competitive market in the country, attracting capital and increasing the efficiency of banks. However, this process is associated with such difficulties as long-term economic changes, lack of legal frameworks, and dissatisfaction of social strata. The relevance of the study is that by studying the specific features of privatization in the conditions of Uzbekistan and ways to eliminate them, it is possible to contribute to the stabilization of the country's financial system.

Kalit so'zlar: Xususiylashtirish, tijorat banklari, O'zbekiston bank tizimi, moliyaviy islohotlar, davlat siyosati, investorlar, raqobatbardosh bozor, qonuniy bazasi, ijtimoiy qabul qilish, post-sovet mamlakatlar, monopoliyaga qarshi choralar, strategik investorlar, aktivlarni baholash, bozor risklari, solishtirma tahlil.

Keywords: Privatization, commercial banks, banking system of Uzbekistan, financial reforms, state policy, investors, competitive market, legal framework, social

acceptance, post-Soviet countries, antitrust measures, strategic investors, asset valuation, market risks, comparative analysis.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-martdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-83-son qarorda Davlat ulushiga ega tijorat banklari va korxonalarni transformatsiya qilish va ularni xususiylashtirish bo‘yicha vazifalarni amalga oshirish maqsadida: O‘zbekistonning moliya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida tijorat banklarini xususiylashtirish muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi. Bu jarayon mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va xorijiy sarmoya oqimini jalb qilish maqsadlariga xizmat qilmoqda. Quyidagi tahlilda xususiylashtirishning asosiy bosqichlari, muammolar va istiqbollari ilmiy adabiyotlar asosida yoritilgan.

1 – jadval

Tiklanish va taraqqiyot jang‘armasining davlat aksiya paketi (ulushi) bo‘yicha aksiyador (ishtirokchi) funksiyasi mavjud tashkilotlar[2023]

RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Ulushi, %
1.	“Agrobank” ATB	46,3
2.	“Asakabank” ATB	88,2
3.	“O‘zsanoatqurilishbank” ATB	82,1
4.	“Xalq banki” AT	78,5
5.	“Turonbank” ATB	90,1
6.	“Qishloqqurilishbank” ATB	23,9
7.	“Aloqabank” ATB	54,5

8.	“O‘zmilliy bank” AJ	59,3
9.	“Mikrokreditbank” ATB	28,2
10.	“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ	37,0

O‘zbekiston davlat banklari 2020-yil may oyida bank sektorini isloh qilish bo‘yicha keng qamrovli strategiya e‘lon qilinganidan keyin ko‘proq tijoratga asoslangan biznes modellariga o‘tishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Bu haqda Fitch Ratings yaqinda Toshkentda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston bo‘yicha konferensiyasida aytib o‘tdi. [2024]

Ammo sektorning chuqur ildiz otgan tarkibiy zaifliklari va yangi xavflar tufayli keyingi takomillashish uzoqroq vaqt talab qilishi mumkin. Islohotlarning asosiy tayanchlaridan biri biznes modelini o‘zgartirgandan so‘ng davlat banklarining ko‘pchiligini yo‘naltirilgan kreditlashdan voz kechish va tijorat operatsiyalarini rivojlantirish uchun xususiylashtirishdir. 2025-yil oxirigacha kamida uchta bankni xorijiy strategik investorlarga sotish maqsad qilgan edi. Bu nodavlat banklarning sektor aktivlaridagi ulushini 60 foizgacha oshiradi (2023-yil yakunida 32 foiz edi). Islohotlar banklarning korporativ boshqaruvi va risklarni boshqarish tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqish, prudensial tartibga solishni takomillashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Islohotlar e‘lon qilinganidan beri hukumat O‘zbekistonning beshinchi yirik banki bo‘lgan “Ipoteka bank”ning nazorat paketini Vengriyadagi OTP Bank’ga sotdi. Biroq yaqinda yana ikkita yirik bank – O‘zbekiston sanoat-qurilish banki va “Asakabank”ni sotish muddati mos ravishda 2024-yil oxiri va 2025-yil oxiriga ko‘chirilgani ma’lum qilindi.

Ikki bank hali ham o‘zlarining biznes modellarini o‘zgartirish ustida ishlar olib bormoqdalar va diversifikatsiya qilish harakatlariga qaramasdan, past foizli korporativ kreditlarga sezilarli darajada bog‘liq ekani ma’lum bo‘ldi

“Aktivlarning sifati yaqin kelajakda O‘zbekiston banklarining ichki kredit layoqatliligini baholashda asosiy omil bo‘lib qoladi. Bizning hisob-kitobimizcha, sektordagi qadrsizlangan kreditlar ulushi 2023-yilda jami kreditlarning 10 foizidan ortig‘iga oshgan va bu yil banklar qolgan muammolarini tan olishda davom etar ekan, bu

yana o‘shishi mumkin. Biz davlat siyosiy banklarini eng zaif deb hisoblaymiz, chunki ular yuqori xavf bilan subsidiyalangan kreditlashda ishtirok etadi”, — deyiladi Fitch Ratings tahlilida.

So‘nggi yillarda chakana kreditlashning jadal o‘shishi o‘rta muddatli istiqbolda qo‘shimcha xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Chakana kreditlar ulushi 2018 va 2023-yillar oralig‘ida ikki baravar ko‘payib, 2023-yil oxirida 32 foizga yetdi.

Chakana kreditlar sifati 2024 va 2025-yillarda yomonlashishini kutmoqdamiz, ayniqsa, garovsiz kreditlar va avtokreditlar kabi xavfli segmentlarda”, — deydi tahlilchilar. O‘zbekiston Markaziy banki tomonidan joriy etilgan so‘nggi tartibga solish cheklovlari chakana kreditlashdagi xavfni yumshatishi kerak. Ammo bu choralalar to‘liq kuchga kirishi uchun vaqt kerak bo‘ladi. O‘zbekiston banklarining bazaviy foydasi yuqori daromadli chakana kreditlashga e‘tibor kuchayishi hisobiga o‘rta muddatli istiqbolda yaxshilanishi kerak, biroq yakuniy natija asosan tavakkalchilik xarajatlari bilan belgilanadi.

Bank islohoti boshlanganidan beri davlat kapitalini qo‘llab-quvvatlash ko‘proq tanlandi. Shu bilan birga, siyosiy banklar birinchi darajali kapitalning yangi kiritmalarining asosiy qismini oldi.

“Biz davlat banklarining moliyalashtirish profilini ularning davlat va ulgurji fondlarga (shu jumladan, xalqaro moliya institutlarining) yuqori darajada tayanishi va likvidlik buferlarining cheklanganini hisobga olgan holda zaif deb baholaymiz”, — deya xulosa qildi Fitch Ratings.

O‘zbekiston respublikasi prezidentining farmoni 2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan o‘zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida [2020]

Moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg‘or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Xalqaro moliya institutlari ko‘magida “Ipoteka-bank” ATIB, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Asaka” ATB, AT “Aloqabank”, “Qishloq qurilish bank” ATB va “Turonbank” ATBdagi davlat ulushlarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, bunda birinchi bosqichda ularni institutsional

o'zgartirishni (faoliyatini transformatsiya qilish), ikkinchi bosqichda esa davlat aksiyalari paketini sotish belgilab o'tilgan.

Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi hamda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi yangilangan qonunlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishi lozim.

Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-martdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-83-son qarorining

2. <https://daryo.uz/2024/03/26/ozbekistonda-davlat-banklarini-xususiylashtirish-hozirgi-jarayon-va-ehtimoliy-kechikishlar>

3. O'zbekiston respublikasi prezidentining farmoni 2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan o'zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida [2020]